

## TASAVVUF LINGVOPOETIKASI.BOBORAHIM MASHRAB G'AZALLARINING TIL XUSUSIYATLARI

**Saodatxon Nosirjon qizi Qo'ziboyeva**

*Farg'ona davlat universiteti talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Boborahim Mashrab ijodining lingvopoetik xususiyati to'g'risida so'z boradi. G'azallarida takrorlangan "yig'lamoq" fe'lining tahlili bo'yicha turli yondashuvlar haqida fikr yuritiladi.*

**Kalit so'zlar:** *Mustazod, lingvistika, lingvopoetika, konnotativ ma'no, poetik til.*

**Abstract:** *This article talks about the linguopoetic nature of Boborahim Mashrab's work. Various approaches to the analysis of the repeated verb to "cry" in his ghazals are discussed.*

**Key words:** *Mustazad, linguistics, connotative meaning, poetic language.*

**Аннотация:** В данной статье говорится о лингвопоэтическом характере творчества Боборахима Машраба. Обсуждаются различные подходы к анализу повторяющегося глагола плакать в его газелях.

**Ключевые слова:** *Мустазад, языкознание, коннотативное значение, поэтический язык.*

### KIRISH

Bukilmas iroda va jasorat namunasini amalda namoyon etib, o'z hayotini aziz Vatanimizning har tomonlama ravnaq topishi, bugungi tinch va osoyishta kunlar uchun jonini fido qilgan ajdodlarning muqaddas xotirasini yod etib, ezgu ishlarini davom ettirish, safimizda yurgan keksalarni e'zozlash-odamiylikning eng oliy mezoni va bizga tinchlik, omonlik kerak, deb yashaydigan bag'rikeng va oliyjanob xalqimizga xos azaliy qadriyatdir.

Shavkat Mirziyoyev

O'zbek va boshqa turkiyzabon xalqlar adabiyotida o'zining otashnafas, xalqchil she'rlari bilan keng shuhrat topgan mumtoz o'zbek adabiyotining ulug' namoyondalaridan biri Boborahim Mulla Vali o'g'li Mashrabdir. Ijodkor O'zbek mumtoz she'riyatiga yangicha qarash, ruh va o'ziga xos ijodiy nafas olib kirgan. U O'zbek klassik adabiyotining mashxur fidokorlaridan. Shu sababli shoirning ijod yo'li murakkab, uning g'azal, mustazod, murabba, muxammas va musaddaslarining mushtarak jihati ham, ularda avvalo inson ulug'lanib, imon-e'tiqodi, ezgu ishlari kuylanishi bilan ajralib turadi. Adabiyotshunos Fitratning yozishicha, o'zbek adabiyoti tarixida Mashrab mustazod (mustazod-arabcha "ortirilgan", lirik janr turi) janrida eng ko'p ijod qilgan shoirlarning biri, shuningdek, Imom G'azzoliyning "Kimyoyi Saodat", Jaloliddin Rumiyning "Masnaviyi ma'naviy", asarlari "Kimyo" va "Mabdayi nur" (Nurning kelib chiqish joyi) nomlari bilan Boborahim Mashrab tomonidan o'zbek tiliga o'girilgan.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Lingvistika(tilshunoslik)badiiy adabiyot bilan ham uzviy aloqadadir. Chunki til aloqa vositasi sifatida muayyan axborot tashuvchi oddiy belgilar sistemasigina bo'lib qolmay, balki tinglovchiga ta'sir qiluvchi qudratli vosita hamdir. Tilning birinchi funksiyasi an'anaviy va sistem-struktur tilshunoslikning o'rganish obyekti bo'lsa, ikkinchi funksiyasi lingvopoetikaning o'rganish obyektidir. Lingvopoetika lingvistik poetikaning qisqargan shakli bo'lib, badiiy asarlarda qo'llanilgan lisoniy birliklarning (fonetik, morfemik, leksik va boshq.) badiiy-estetik vazifalarini, tilning konnotativ(so'zning ko'chma ma'nosi) funksiyasini o'rganadi.Boshqacha qilib aytganda, lingvopoetika tilshunoslikning badiiy nutqini o'rganuvchi bo'limidir. Badiiy nutq badiiy adabiyotning bayon qilish vositasi sanaladi. Filologiya tarixida badiiy asar tili va poetik til atamaları tez-tez uchrab turadi. Mazkur atamalar ifodalagan tushunchalar bir-biriga juda yaqindir.Adabiy tildan farqli o'laroq,badiiy adabiyot tili ifoda etishga yo'naltirilganligi tufayli tarkib bilan uzviy bog'liq bo'lib,u to'g'ridan to'g'ri xulosa qiladi.She'riy tilde ,rasmiy ,grammatik Roldan tashqari,barcha bu shakllar majoziy vosita rolini o'ynashi mumkin.Poetik tilda inversiya ya'ni ega va kesim almashinuvi asosiy rol ni egallaydi.She'riyatga oid namunalarni anglab yetish avvalo uni tahlil qilishdan boshlanadi.Jumladan,Mashrab g'azallarini til bo'yicha tahlil qilish,baytlardagi har bir so'z,qo'shimchalar bilan alohida ishlash demakdir.Jumladan shoirning ayrim g'azallarida takrorlanib kelgan yig'lamoq fe'luga alohida mulohaza yuritish orqali,ayni kunda ham faol qo'llanuvchi ushbu so'zning yana qanday vaziyatlar bo'yicha nutqda qo'llash mumkinligi aniq bo'ladi.

### MUHOKAMA VA NATIJALAR

Yig'i tushunchasi ilmiy,falsafiy,diniy,tasavvufiy,ijtimoiy-maishiy jihatdan turlicha talqinlarga ega.Bu maqoladan kuzatilgan maqsad yig'i ning yuqorida tilga olingan barcha jihatlarini o'rganib chiqish emas balki,Boborahim Mashrabning, Shodmonlik istama;

Har kishining dardi bo'lsa;

Tushti savdoi muhabbat;

g'azallaridagi yig'lamoq so'zining lug'aviy ma'nolarini o'rganib,ularning ma'nolari majmuasini aniqlashdan iborat.

Yig'lamoq so'zi yuqoridagi uch g'azalda jami sakkizta,ko'z yoshi shaklida oltita qo'llanilgan bo'lib,bundan tashqari yig'lab turarmen so'zi ikki marotaba takror holda qo'llanilgan.Yuqoridagi yig'lamoq ning so'z birikmalaridagi ma'no belgilari umumlashtirilsa quyidagi lug'aviy ma'no guruhlari yuzaga keladi:

a)Yig'lashning qiyinligi ma'no guruhi:

Yig'lamoq oson emasdur,ey jigarbandim eshit.

b)Yig'ining omma oldidagi ko'rinishi ma'no guruhi:

Har kishining dardi bo'lsa,yig'lasun yor oldida.

d)Yig'ining davomiyligi ma'no guruhi:

Doimo yig'lab turarmen ayni gulzor oldida,

Charx urib yig'lab,yig'lab turarmen ushbu dam dor oldida.

e)Yig'ining aytilishi,ijtimoiy hayotdagi yig'i ma'no guruhi:

Aytib-aytib yig'lagaysan oshiqi zor oldida.

f)Yig'ining yuqori darajali ma'no guruhi:

Tushti savdoi muhabbat boshima qon yig'ladim.

Ma'lum bo'ladiki,Boborahim Mahrabning g'azallarida ishlatilgan yig'i so'z birligi,undagi yig'lovchi(shaxs) egasiga qarab bir-biridan farq qiladi.Eng yuqori pog'onadagi yig'ining darajasi,qon yig'lamoq so'zida qaror topgan.Shu o'rinda Mashrabda,so'z mulkining sultoni Alisher Navoiyga izdoshlik holatini ko'rib amalda buni yuzaga chiqarishimiz mumkin.Alisher Navoiy hassos tilshunos sifatida forsiy til amaliyotida turkiy tildan o'tgan so'zlarga ham e'tibor qaratadi.Ayrim so'zlarning to'rt,besh,olti ma'noda qo'llanishiga misollar keltirib,turkiy tildagi yuzta fe'lni keltirib ularning anglatgan ma'nolariga alohida urg'u beradi.Ushbu fe'llar orasida yig'lamoq fe'lining baland va doimiy ma'nosi qayd etiladi.

Boborahim Mashrabning quyidagi g'azallarini tahlil qilganimizda, inson yig'isining faolligini uch turga bo'lishimiz mumkin.

a)Yig'ining yuqori darajasi bo'lgan qon yig'i.

b)Yig'lashning insonda qiyin kechishi oson bo'lmagan yig'i.

c)Real hayotda insonlar orasida takrorlanuvchi ijtimoiy yig'i.

Bundan tashqari,

1)Yig'lamoq oson emasdur,ey jigarbandim eshit,

Mulki dil sadpora bo'lgan so'ng ko'zingdan nam kelur;

2)Har kishini dardi bo'lsa,yig'lasun yor oldida,

Qolmasin armon yurakda,etsun izhor oldida;

-Andalibi benavodek nola-yu afg'on bila doimo yig'lab turarmen;

-Aytib-aytib yig'lagaysan oshiqi zor oldida;

3)Tushti savdoi muhabbat boshima qon yig'ladim.

yuqoridagi ma'no guruhlarining dastlabki tahlilidan ma'lum bo'ladiki,g'azallarda foydalanilgan yig'lamoq so'zining lug'aviy birligida ma'no belgilari bir xil emas,balki har bir baytda o'zgacha ma'no kasb etadi.Yig'ining har bir baytdagi ma'nolari tahlil qilinganda ularning bir-biriga yaqin va uzoq farqli ma'nolarini bir necha ko'rinishda ifodalanganini guvohi bo'lamiz.Shunga ko'ra ushbu so'zning ma'no belgisi va darajasi baytdagi o'rni hamda ma'no birikmasi bilan bog'liqdir.

### XULOSA

Matn tilshunoslik nuqtai nazaridan barcha lingvistik xususiyatlarni o'zida mujassam etgan murakkab tuzilmadir.Va u tilshunoslikning barcha sohalarini asosiy o'rganish obyektlaridan biri hisoblanadi.Shuning bilan birgalikda ijod mahsuli adabiyotning ham ta'sir kuchini oshiruvchi so'zning qurilishini o'rganib,tahlil qilish hamda davomiyligini oshirishda xizmat qiladi.Badiiy ijod namunalari amalda tahlil qilib,o'rganish natijasida juda ko'plab ajdodlarimizning asrlar qatiga yashirilgan nodir namunalari tez va oson o'rganishda asosiy tayanch omil hisoblanadi.

## REFERENCES;

1. Tasavvuf adabiyoti lingvopoetikasi maqolalar to'plami. Toshkent. 2010
2. Boborahim Mashrab. Mehribonim qaydasan. - Toshkent. 1990
3. Boborahim Mashrab. Mabdayi nur saylanma. Fan. 1994
4. Yo'ldashev. M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlil asoslari. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi. Fan. -2007.
5. Doniyorov. X, Mirzayev. S. So'z san'ati (badiiy mahurat va til haqida mulohazalar). - Toshkent.: Fan, 1962
6. Mo'minov, Sh. S. (2022). Rahbar nutqining ta'sir o'tkazish usullari. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies, 2(3), 418-426.